

**Axmedova Shoxista**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti, PhD*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Omon Matjonning shaxsiy uy arxividagi qo'lyozmalar tasnif qilindi. Shuningdek, Ijodkor laboratoriyasining sir-asrorlari ijodkorlarning o'zlari yaratgan esse va badiialarida shuningdek, zamondoshlar xotiralarida, umr yo'ldoshi va farzandlari yozgan xotira kitoblarida ham ochilishi bir qator misollarda ko'rsatildi.*

**Kalit so'zlar:** *arxiv, ijodkor uyi, tasniflash, katologlashtirish.*

O'zbek adabiyotshunosligida so'nggi yillarda mashur adiblarning uy-muzeylaridagi saqlanayotgan arxiv materiallari asosida adiblarning arxiv kataloglari nashr etildi. Jumladan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning arab yozuvidagi hujjatlar tavsifi katologlashtirilib, adabiyotshunos O.Jo'raboyev tomonidan "Abdulla Qahhor arxivi katalogi" chop etildi[1;78]. Shuningdek, G'.G'ulom uy-muzeyining xodimlari tomonidan ham "G'afur G'ulom arxivi katalogi" tayyorlandi. Adabiyotshunos olimlar ham ijodkor laboratoriyasi masalasini o'rganishda adiblarning shaxsiy arxividagi qo'lyozmalar, qoramalar, yondaftarlar, kundaliklar, xatlar, telegrammalar, shaxsiy hujjatlar asosida monografiyalar yaratishdi. Xususan, A.Qahhor, G'.G'ulom, M.Shayxzoda, Shuhrat ijodiy laboratoriyasi R.Qo'chqor, N.Ziyadullayeva, O.Jo'raboyev, M.Qo'chqorova, M.Yadgarova, J.Jovliyev kabilar tomonidan yangicha yo'nalishda tadqiq qilindi.

Ijodiy laboratoriya ijodkor, ijod tabiati, ilhom, badiiy asar biografiyasi, ijodiy takomil, ijodiy g'oya, ijod mashaqqati kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston xalq shoiri Shukrulloning "Javohirlar sandig'i" esselar kitobida ijodkor laboratoriyasi sirlari ochib berilgan. Masalan, u yozuvchilik kasbini shunday ta'riflaydi: "Har holda usta dorboz ham langar cho'psiz dorda qadam tashlay olmaydi. Uni kindikdan kindikka, chig'iriqdan chig'iriqqa yo'rg'alatib, salomat olib chiquvchi uning qo'lidagi langari! Katta daryoga tashlangan yakkacho'p ustidan o'tar chog'larimda, avvalo, ustozlar ruhi qalbinga madad bo'lsa, ko'kragimga yaqin tutib, ikki qo'limda ushlagan langar cho'pim sen bo'lasan, she'rlarim!"[2;7].

Ijodkor laboratoriyasining sir-asrorlari ijodkorlarning o'zlari yaratgan esse va badiialarida shuningdek, zamondoshlar xotiralarida, umr yo'ldoshi va farzandlari yozgan xotira kitoblarida ham ochiladi. Jumladan, "Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida", "Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida", "G'afur G'ulom zamondoshlari xotirasida", "Mirtemir zamondoshlari xotirasida", "Shuhrat zamondoshlari xotirasida" kabi turkum kitoblarni sanash mumkin. Qolaversa, "Otam haqida" (H.Qodiriy), "Oybegim mening" (Z.Saidnosirova), "Chorak asr hamnafas" (K.Qahhorova), "Yo'qotganlarim va topganlarim" (S.Ahmad), "To'rt tanho" (O.Hojiyeva), "Men otamning qiziman" (S.Xolmirzayeva) va boshqalarning xotira kitoblari ham ijodkor shaxs va uning hayoti, ijodi, ijodiy laboratoriyasini teranroq ochib berishga qo'shimcha manba bo'ladi.

Eng muhimi, mashhur adiblarning o‘z qo‘llari bilan yozgan dasxat qo‘lyozmalari ijodkor laboratoriyasining yangi qirralarini ochishda muhim material bo‘lib xizmat qiladi. Bizning tadqiqot obyektimiz sanalgan Omon Matjonning shaxsiy arxivi Toshkent shahri Olmazor tumani Qoraqamish dahasi Rohat mahallasida joylashgan uyida farzandlari qo‘lida saqlanadi. Odatda, ijodkorlarning vafotidan so‘ng ularning shaxsiy arxivi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyiga yoki “O‘zbekiston yozuvchilar arxivi” fondiga topshirilardi. Biroq Omon Matjonning shaxsiy arxivi hozircha hech bir davlat fondiga topshirilmadi. Uning barcha shaxsiy hujjatlari, kitoblari va qo‘lyozmalari farzandlari Diyor Matjonovga meros qoldirilgan. Biz dissertatsiyamizni shakllantirish maqsadida shoirning shaxsiy arxividan foydalanish uchun Diyor Matjonovdan ruxsat oldik. Ushbu shaxsiy arxiv boy va qimmatli qo‘lyozmalar, hujjatlar, xatlar, telegrammalar, otkritkalar, fotolar va turli kitoblardan iborat xazinadir. “Shoir arxivdagi materiallarning hammasi daliliy hujjat hisoblanib, shoir hayoti va ijodining biror lavhasini, jonli xotirasini hozirgi yosh va kelajak avlodga tiklab beradi”[3;90]. O.Matjon, asosan, XX asrning 70-yillarida shoir bo‘lib, el nazariga tushgan shoirlardan biri sanaladi, uning ko‘p yillik izlanishlari, ijod yo‘li davomida ijodkor asarlarining bir necha qo‘lyozma variantlarining borligi uning shaxsiy arxivi paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Avvalo, ushbu qo‘lyozmalarning saqlanib qolishida shoirning turmush o‘rtog‘i Maqsuda Matjonovaning xizmatini eslash joiz. Shu bilan birga shoirdan qolgan bir parcha qog‘oz ham saqlanib, bugungi kungacha yetib kelishi, shubhasiz, shu inson tufayli amalga oshirilgan. Negaki bu yerdagi qo‘lyozmalar janr xususiyatlariga ko‘ra ajratilib, yillar kesimida, alohida papkalarga solinib taxlangan. Shu sababli arxivni o‘rganib, tadqiq qilishimizda qo‘lyozmalarning bunday tartiblanishi u qadar qiyinchilik tug‘dirmadi. Shuningdek, shoir uy arxivida saqanayotgan, uning turmush o‘rtog‘iga bag‘ishlangan “Maqsudam” she‘rining borligi Omon Matjon Maqsuda opani qanchalik sevib, ardoqlab, asraganini ko‘rsatadi. O‘sha davrda yashagan shoirlar, adabiyotshunoslar, ularning yaqinlari bu juflikning munosabatlariga juda havas qilganligini bot-bot takrorlashgan va shoir haqida tayyorlangan turli ko‘rsatuvlarda ham aytib o‘tgan:

### MAQSUDAM

Umr yo‘ldoshim Maqsudaga  
Falakda agar bir yaxshilik bo‘lsa,  
Shu mening boshimga tushgandir, shukr.  
Aslida, insonga nur yig‘moq uchun –  
Shu‘la izlash uchun berilar umr.

Ona nafasidan kamnasib, lekin  
Oliy e‘zozlarni ko‘rdim hayotda.  
Dunyoda bir zotning mehrin qozonib,  
Mag‘rur yashamoqning mezoni katta.



Men taqdir nonini injilmay tishlab,  
 Bor elning baxtidan shodon bo‘laman.  
 Suyuklim qalbida to sog‘inchki bor,  
 Men, demak, haliman, hamon bo‘laman[4;76].

Bu she‘r shoir hayotligida nashr yuzini ko‘rmadi, lekin olim M.Qo‘chqorova va shoirning o‘g‘li Diyor Matjonovlarning tashabbusi bilan 2021-yilda “Maqsudam”[5;45] nomli to‘plami nashr ettirildi. Unda ijodkorning bir qancha sara she‘rlari, dostonlari va “Quyosh soati” nazmlar kitobidan olingan parchalar joy olgan.

Omon Matjonning mazkur uy arxividagi qo‘yozmalarni janr xususiyatidan kelib chiqib, quydagicha tasniflash mumkin:

- she‘riyati (she‘rlari, dostonlari va she‘riy yo‘lda yozilgan manbalar);
- dramaturgiyasi (dramatik asarlari, ssenariylari va dramatik turga oid manbalar);
- tarjimalari (bunda shoir tomonidan qilingan tarjimalar hamda shoir she‘rlarining tarjimasi);
- shoirning turli asarlari uchun to‘plangan material, kuzatish, badiiy topilma, qayd obrazlar, tarixiy siymolar haqida fakt ma‘lumotlar yig‘gan (al-Xorazmiy, Beruniy, Pahlavon Mahmud kabilar);
- ijodkorning nashr bo‘lmay qolgan asarlari (“Ibn Sino Buxoroda” dramasi, “Zulfiya” haqidagi librettosi);
- shoirga yozilgan turli maktublar va telegrammalar;
- shoir deklamatsiyasidagi she‘rlar, ijodkor, jurnalistlar, tanqidchilar bilan qilgan adabiy suhbatlar, intervyular, audioyozuvlar (bunda Omon Matjonning “Youtube” ijtimoiy tarmoqlariga yuklangan turli suhbatlari kiradi).

Mazkur tartibda tasniflash usuli qo‘lyozmalar ustida ishlashni osonlashtiradi va umumiy xulosalar chiqarishda qo‘l keladi. Ushbu qo‘lyozmalar birinchi galda shoir biografiyasini, ijodiy laboratoriyasini o‘rganishda juda muhim va birlamchi ma‘lumotlardir. Shuningdek ular ijodkorning ma‘naviy va ruhiy dunyosi, atrof-muhit, adabiy-jamoatchilikka munosabati, o‘sha davrdagi turli ijtimoiy-siyosiy fikrlar haqida ham ma‘lumot bera oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matjon O. Maqsudam. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 128 b.
2. Matjon O. Ming bir yog‘du. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 176 b.
3. Matjon O. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot, 2023. – 146 b.
4. Matjon O. Umr o‘tar, vaqt o‘tar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 143 b.
5. Абдулҳаким М. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар. Таржималар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 328 б.
6. Азимов С. Абадият. 2-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 150 б.

